

Fransiya XX asrning ikkinchi yarmi-XXI asr boshida siyosiy ahvoli.

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti Tadbirkorlik va Boshqaruv Fakulteti Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) yo'nalishi 4-bosqich 312-guruh talabasi

Raxmonov Aziz.

Annotatsiya: Urushdan so'ng Fransiya davlatining ijtimoiy-siyosiy hayoti. Fransiya davlatining tashqi siyosati, Muvaqqat rejim, To'rtinchi respublika, Beshinchi respublika, Sharl de Goll siyosati, Fransua Mitteran siyosati, Jak Shirak islohotlari haqida.

Kalit so'zlar: Muvaqqat rejim, Sharl de Goll, To'rtinchi respublika, Beshinchi respublika, Afrika mustamlakalariga mustaqillik berish, XX asr oxirlarida Fransiya.

Fransyaning urushdan keying tarixida uchta bosqichga ajratib ko'rsatish mumkin. Bu-muvaqqat rejim (1944-1946 yillar), To'rtinchi respublika (1946-1958 yillar) va Beshinchi respublika (1958 yilda). Fransiya jahon urushida g'olib chiqqan davlatlardan biri edi. Biroq bu g'oliblik Fransiya uchun juda katta yo'qotishlar evaziga qo'lga kiritildi. Chunonchi, urush tufayli 1,4 mln nafar fransiyalik halok bo'ldi, 750 mingi yarador, mayib-majhur bo'lib qoldi. Urush harakatlari oqibatida sanoati taraqqiy etgan viloyatlar vayronaga aylandi. Urushdagi yo'qotishlar, ocharchilik va kasalliklar tufayli Fransiya aholisi 3 mln kishiga kamayib ketdi. Narxlar urushdan oldingiga nisbatan 6 marta oshib ketdi. Shunday siyosiy paytda Fransiyada Muvaqqat tartibi o'rnatildi. Muvaqqat hukumat boshlig'i, "Ozod Fransiya" tashkilotining asoschisi general Sharl de Goll mamlakatda ulkan obro'ga ega edi.¹

Ko'pchlik fransuzlar uni Qarshilik tashkilotining asoschisi, "Fransyaning xaloskori", "qutqaruvchi" deb hisoblardi. De Goll mustaqil tashqi siyosat olib borishga va jiddiy ijtimoiy islohatlarni o'tkazishga qodir bo'lgan kuchli davlat yordamida Fransyaning ulug'vorligini tiklashga ishonardi. 1946-yil mayda Tasis majlisi konstitusiya loyhasini referendumga kiritdi. 1946-yil 13 oktabrda bo'lib o'tgan referendumda konstitusiya loyhasi maqullandi. 1791 yilgi konstitusiya mantidagi "Fransiya imperiyasi" atamasi "Fransiya ittifoqi" bilan almashtirildi.

Fransiya hududida AQSHning harbiy bazalari joylashtirildi.

1946 yildan 1954 yilgacha-sakkiz yil fransuz qo'shinlari Vietnamda mustamlakachilik urushini olib bordi. 1954 yil noyabrda Jazoирning arab aholisi mustamlakachilarga qarshi qo'zg'olon ko'targanda, Fransiya Jazoирга qarshi mustamlakachilik urushini boshladi. Oqibatda Jazoир muammosi bilan bog'liq

¹ Shuhrat Ergashov "Jahon tarixi" eng yangi tarixi.

milliy inqiroz holati vujudga keldi. 1954 yil hukumatni boshqargan radikal partiya yetakchisi P.Mendes-Frans hukumati Jenevada Hindixitoydagi urush harakatlarini to'xtatish to'g'risida kelishuvni imzoladi hamda Tunis va Marokashga avtonomiya berish bo'yicha muzokalarlarni boshladi. 1954 yil iyulda P.Mendes-Frans hukumati Tunisning "ichki avtonomiyasi"ni e'lon qildi, ammo Marokashga mustaqillik berishdan bosh tortdi. 1958 yil noyabr Milliy majlisga bиринчи saylovlар bo'lib o'tdi. Saylovlар arafasida de Goll yangi siyosiy partiya - "Yangi respublikani himoya qilish ittifoqi"ni (YAPHI) tuzdi. 1958 yil 21 dekabr Sharl de Goll Fransiya prezidenti etib saylandi. U premer-ministr lavozimiga o'zini eski safdoshi, Qarshilik harakati ishtirokchisi Mishel Debreni tayinladi. Fransyaning buyukligini tiklashga intilgan de Goll kuchli iqtisod va mustaqil tashqi siyosatga ega bo'lgan davlatni shakillantirishga kirishdi. Mustamlakachilik endi o'tmish ekanligini tushungan president 1958 yili konstitusiya qabul qilinishi bilan Fransyaning barcha mustamlakalarida ular "Fransuz hamjamiyati"da qolishni istaydimi, degan savol bilan referendum o'tkazdi. Gvineyaning ko'pchilik aholisi "Fransuz hamjamiyati" dan chiqish istagini bildirdi. 1958 yil 1 oktabrdan Gvinea mustaqil davlatga aylandi. So'ngra Afrikadagi boshqa fransuz mustamlakalari ham mustaqillikka erishdi. 1960 yili Fransyaning G'arbiy va Ekvatorial Afrikadagi 14 ta sobiq mustamlakalari o'z mustaqilligini e'lon qildi.

Faqat Jazoir masalasi ancha murakkab edi. Bu yerda yuz yildan ziyod mustamkachlik davrida ko'p sonli yevropalik aholi shakllangan bo'lib, mamlakatning 9 mln aholisidan 1mlni yevropaliklar edi. Jazoirni ular boshqarardi. Mamlakat iqtisodiyoti ham fransuzlar qo'lida edi. Ular jazoir-arab millati mavjudligini qat'iy rad etib, "Jazoir-bu Fransiya" deyishardi. De Goll Jazoir masalasini harbiy yo'l bilan xal etib bo'lmasligini tushunib yetdi.

De Goll bir uchrashuvda shunday degan edi. "Men mustamlakachilik o'z davrini yashab bo'lganligini tushunaman, -degan edi u suhbatlatning birida. - Shuning uchun ham Afrikaning o'n to'rtta mamlakatiga mustaqillik berdim. Men Jazoir masalasini ham o'z taqdirini o'zi belgilash tamoyili asosida hal qilish umididaman".

F.Mitteran hokimiyat tepasiga kelgandan so'ng, bиринчи navbatda, Fransyaning g'arbiy bloki va AQSH bilan munosabatlarini yaxshilashga kirishdi. Fransiya HATO bilan hamkorligi sezilarli darajada faollashdi. 1982-1983 yillarda AQSH bilan Fransyaning ajraladigan bosh qismlarga (kallaklarga) ega raketalari va neytron qurollari uchun zarur bo'lgan zamonaviy kompyuter texnologiyalarini yetkazib berish bo'yicha hamkorlik bitimlari tuzildi. F.Mitteran

AQSH ning o'rta masofaga mo'ljallangan yadro raketalarining Yevropaga joylashtirilishini qo'llab-quvvatladi.²

1983 yilda Fransiyaning tashabbusi bilan Parijda HATOning Kengashi bo'lib o'tdi va Fransiya bir yilga uning raisi bo'ldi. Fransiyaning SSSR bilan munosabatlariga sovuqlik tushdi. U sovet qo'shinlarining Afg'onistonidan olib chiqib ketishini, Polshada harbiy rejimining bekor qilinishini, sovet qurollarining qisqartirilishini talab qildi va Sharqiy Yevropaga sovet raketalarini joylashtirishni qoraladi. Fransiyaning atlantik ittifoqi yo'lidan borishi va Arab-Isroil mojarolari Isroilni qo'llab-quvvatlashi, xususan, Isroilning Jo'lon tepaligini anneksiya qilganligining Fransiya tomonidan tan olinishi Suriya bilan munosabatining yomonlashuviga olib keldi. 1983 yil Fransiya AQSHning Livanga tinchlikparvar kuchlarinini kiritish to'g'risidagi taklifiga qo'shildi. 1984 yili F.Mitteran rasmiy tashrif bilan Moskvaga keldi. M.Gorbachev ham 1985 yilda Parijga bordi. Parijdagi sovet-fransuz hamkorligiga bag'ishlangan "katta komissiya" sessiyasi bo'lib o'tdi. Fransiya 1984-1985 yillarda Yevropa Ittifoqining kengashi tashabbusi bilan chiqdi, natijada Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga Ispaniya bilan Portugaliya a'zolikka qabul qilindi.³

1980 yillar oxirida J.Shirak hukumati korxonalar, banklar va sug'urta kompaniyalarini ommaviy privatizasiya qilishni e'lon qildi. Privatizasiya yo'llaridan biri-korxonani uning ishchilarini tomonidan sotib olinishi bo'ldi. 1989-1992 yillar ishchilar soni 500 dan 1 minggacha bo'lgan korxonalarining chorak qismi sotib olindi. 1995 yilgi prezidentlik saylovlarida Jak Shirak g'olib chiqdi va ishsizlikka qarshi kurash, jamiyatning boylar va qashshoqlarga bo'linishning bartaraf qilinishi asosiy vazifa deb e'lon qilindi. Tashqi siyosatda uning asosiy faoliyati Fransiyaga Yevropa Ittifoqining "yetakchisi" va butun dunyo uchun "erk mayog'i" rolini qaytarishga qaratilgan edi.

Foydanilgan adabiyotlar.

1. Xamza Kichkilov "Eng yangi tarix" Toshkent "Yangi nashr" 2011 yil.
2. Moyli Lafasov "Jahon tarixi" Toshkent "Turon-iqbol" 2010 yil.
3. Shuhrat Ergashov "Jahon tarixi-eng yangi davr" Toshkent "O'zbekiston" 2019 yil.

² M.Lafasov "Jahon tarixi"

³ Xamza Kichkilov "Eng yangi tarix"